

PODSHOHLAR TANGRINING YERDAGI SOYASI

(Alisher Navoiyning “Hayrat ul- abror” dostonida e’tiqodiy qarashlar vositasida ijtimoiy-siyosiy g’oyalari badiiy talqini)

Fozilova Mehriya O’ktamovna

Buxoro viloyati Buxoro shahar 6-IDUM ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi

Anotatsiya

Mazkur maqolada Alisher Navoiyning durdona asari “Xamsa” tarkibiga kiruvchi “Hayrat ul - abror” dostonida shoir o’zining ijtimoiy-siyosiy qarashlarini badiiy talqin etgan, mamlakat ravnaqi uchun eng mas’ul bo’lgan shaxs zamon hukmdori faoliyatiga o’zining e’tiqodiy qarashlari nuqtai nazaridan munosabat bildirgan. Shuningdek, maqolalarda aks etgan mavzularning mazmun-mohiyati borasidagi firlar ham o’rin olgan

Kalit so’zlar: rif’at, xutba, maqolat, mutafakkir, lutf, qiyomat, falak, talqin

KIRISH

Ulug’ mutafakkir shoir Alisher Navoiy o’zining shoh asari bo’lgan “Xamsa”da muhim ijtimoiy-siyosiy qarashlarini ilgari suradi. Uning bunday g’oyalari “Hayrat ul-abror” dostonida o’zining e’tiqodiy qarashlaridan kelib chiqib talqin qilgani bois, yanada ularning ta’sirchanligi oshganiga guvoh bo’lish mumkin.

TADQIQOT NATIJALARI

Jumladan, dostonidagi uchinchi maqolat “Salotin bobidan”, ya’ni sultonlar sha’niga bag’ishlangan bo’lib mamlakat taraqqiyotida podsholarning o’rni alohida ahamiyat kasb etgani bois ham shoir bular haqida o’zining qimmatli fikrlarini badiiy ifoda etadi. Maloqatning dastlabki baytlari hukmdor sha’niga aytilgan ta’rif-tavsiflardan tarkib topgan:

Ey falak avjidan utub rif’ating,
Oyu quyoshdin cholinib navbating,
Taxting o’lub davlati jovid mulk,
Soyai chatning aro xurshed mulk.
Toj boshingdan bo’lubon sarbaland,
Taxt ayo’gingga ulub arjumand.

Ulug’ shoir hukmdorni ta’riflarkan uning rif’ati ya’ni martabasi falak avjidan ya’ni martabasi falak avjidan, ya’ni osmonlarning eng yuqori qismidan ham o’tganligini e’tirof etadi. Oyu quyoshning falakdagi martabalarini ham shohning rif’ati kesib o’tgan. Shahanshohning o’tirgan taxti – abadiy davlat mulki, uning chodirining soyasidan xurshed, ya’ni quyosh mamlakati o’rin olgan. Podshohning boshi tufayli tojining martabasi yuqorilashgan, taxt esa uning oyog’idan azizu mukarramlilik sharafiga sazovor bo’lgan. Shu tariqa maqolatda hukmdorni vasf etish davom etarkan, shoir podshohning nomi pulga chekilgani uchun pul qadr

topganini, shohning bunday nufuzini bildiruvchi tangalar osmon yulduzlari singari ko'pligini badiiy ifodalaydi. Bunday mubolag'ali vasf shaklidagi baytlar ketma-ketligida sekin-asta mutafakkir shoir xalqparvar hukmdorlarga xos fazilatlar badiiy talqini bera boshlaydi:

Hotami adlinga sipehri baland,
 "Rosti-yu rusti" bilan naqshband.
 Xutbai johing qadar insho qilib,
 "Ya'muru bil-adl" ila tug'ro qilib.
 Haqqi solib soyani ra'fat senga,
 Ro'zi etib taxti xilofat senga

Iqtibosdagi dastlabki baytda adolat uzugingga baland osmon "Rostlik-halollik" degan so'zlarni naqshlagan, degan ma'no o'zining badiiy ifodasini topgan. Bunda ulug' shoir "sipehri baland" ya'ni baland osmon deganda, Oллоhning ioyati bilan sening taqdiringda shohlik biilgan bo'lib "Uning amri bilan" Rostlik-halollikka "amal qilishing lozim-degan muhim muohazaarini badiylashtradi. Baland martabang xutbasini esa U, ya'ni Oллоh taolo "Adolat bilan amringni yurgiz"-deb yozgan,-deyiladi ushbu baytda. Keyingi baytda esa podshohlar Tangrining yerdagi soyasi,-degan fikr o'zining ifodasini topgan. Ulug' shoir hukmdorga qarata: "Haq sanga mehribanlik soyasini solib, xalifalik taxtini senga nasib etdi"-deydi. Shu tariqa dabdabasi olamni tutgan sultonga Haq hukmfarmonlik bergani, uning qo'li baland qilib, ne-n buuklarni uning qoshida mazmunidagi baytlarda podshoh vasf etiladi. Sulton Oллоhning bu inoyatlarini qadrlamog'i lozim, buning uchun, avvalo, shukr qimog'i talab etiladi:

Amr qilibdur necha xizmat sanga,
 Ro'zi etibdur necha san'at sanga
 Biri aning ne'matiga shukr erur,
 Kimsaki, shukr aylasa ko'prak berur.

Ulug' shoir podshohga nasib etilgan san'at deganda, albatta, hukmdorlik oyini, mamlakatni boshqarish san'atini nazarda tutadi. Navoiy shukr qilish payg'ambarimiz hadislarida aytigani ingari iymonning bir ko'rinishi ekanligini e'tirof etganlar. Podshoh ham bir banda kabi shukr qilsa, Oллоhning lutfu marhamati loyiq ko'riladi, deydi shoir.

MUHOKAMA

Alisher Navoiy shohning yuksak maqom sohibi ekanligini vasf etish bilan birgalikda uning oddiy el qatori bir banda ekanligini ham eslatib o'tadi. Uning tob'lari undan kam emaslar, balki hunar, kamol, xush xulq, so'z, adl, insofda undan, ya'ni podshohdan ustun turadiganlari ham bor. Buni podshoh unutmazligi kerak. Bas, shunday ekan, hukmor hamisha xalqqa gamxo'rlik qilishi kerak. U mamlakat obodligi, el hayotining farovonligini ta'inlamog'i lozim. Cho'pon o'z podasini och bo'rilar hujumidan qanchalik ehtiyot qilsa, podshoh xalq hayotining tinchligi va omonligini shunday asramog'i lozim. Bog'bon bog'ni qanday suv berib parvarish qilsa, shoh ham mamlakatga shunday qaramg'i darkor. Agar podshoh biror xatoga yo'l qo'yan bo'lsa, qo'rqob uzr so'rasin o'tkazgan zulmidan ezilib tavba qilsin. Kimga bedodlik qilgan

bo'lsa, uni adolat qo'li bilan qo'llasin. Alisher Navoiyning ushbu mulohazalari iymonli, islomiy ruknlarni og'ishmay bajaradigan hukmdorlarga qarata aytilgan. Bunday fazilatlariga ega bo'lmagan hukmdor uchun aytilgan bu mulohazalarning zarracha qiymati bo'lmasligi mumkin. Qiyomat qoyimning voqe' bo'lishiga ishongan podshohgina ulug' shoirning mana bu satrlarda badiiy ifodasini topgan mulohazalardan to'g'ri xulosa chiqarishi mumkin:

Gahi-gahi yod ayla nadomatni ham,
Qaysi nadomatki qiyomatni ham
Jurmu gunahdan kishi ma'sum emas,
Tarkini tutmoq dag'I mazmum emas.

XULOSA

Shunday qilib, Alisher Navoiy jamiyatda adolat qaror topishini, mamlakat taraqqiyotini odil hukmdor bilan bog'laydi. Agar podshoh zolim, ma'naviy tuban bo'lsa, mamlakatda buzg'unchilik, aysh-ishrat, poraxo'rlik bolalab ketadi. Ulug' shoir bu masalaga e'tiqodiy qarashlar nuqtai nazaridan yondashganligi bois ularning badiiy talqini nihoyatda ta'sirchan chiqqanligini sezishimiz mumkin. Navoiy tom ma'noda uzoqni ko'ra bilgan shoir. Mutafakkir, olim kelajakda haqiqiy, adolatli, or-nomusli, diynatli, vatanparvar va xalqi uchun jonini fido qiladigan yurtboshilar yetishib chiqishini sezgan va istagan. Hozirgi davrda ham Navoiy asarlaridagi purhikmat hikoyatlar o'z ahamiyatini yo'qotmagan

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. Mukammal asarlar to'plami. XX tomlik, 7-tom. Toshkent: "Fan", 1991
2. Alisher Navoiy . Mahbub ul qulub . Munshaot. Vaqfiya. Mukammal asarlar to'plami. XX tomlik, 14-tom. Toshkent: "Fan", 1993
3. Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. Toshkent "Yozuvchi", 1996
4. Vohidov R. Alisher Navoiy va ilohiyot. Buxoro, 1994
5. Vohidov. R., Maxmudov. M. Iymon – qalb gavhari. Toshkent: "Ma'na O'zbekiston Yoviyat"
6. Vohidov R, Eshonqulov H . O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006
7. Komilov. N. Tasavvuf. Birinchi kitob. Toshkent "Yozuvchi" 1976
8. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: "O'qituvchi" 1976
9. Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. Toshkent: "Fan", 1974
10. Vohidov R, Ne'matov H, Mahmudov M. So'z bag'ridagi ma'rifat. Toshkent: "Yozuvchi" 2001
11. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at. Tuzuvchi: Hasanov B. Toshkent: "Fan", 1993
12. Maxmud Asad Jo'shon. Tasavvuf va nafs tarbiyasi. Toshkent "Cho'lpon"